# YASHIL

## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**2026-YIL**

**IYUN/6-SON, I-QISM**



ISSN: 2992-8982

https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.*

**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir oʻrinbosari:**
**Karimov Norboy Gʻaniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay’ati:**
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, “Nobel” mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a’zosi, Turkiya – Oʻzbekiston doʻstlik jamiyati rahbari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Siddiqova Sadoqat Gʻafforovna,** pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Maxmudov Nosir,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Ikrom Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Eshtayev Alisher Abdugʻaniyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Hakimov Nazar Hakimovich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), professor
**Ali Konak (Ali Koʻnak),** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
**Cham Tat Huei,** falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixoʻja oʻgʻli,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dots.
**Faxridinov Zafarjon Faxridin oʻgʻli,** Oʻzb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshligʻi
**Utayev Uktam Choriyevich,** Anijon viloyati prokurorining oʻrinbosari
**Ochilov Farkhod,** Oʻzb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshligʻi
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Axmedov Javohir Jamolovich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Toxirov Jaloliddin Ochil oʻgʻli,** texnika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), katta oʻqituvchi
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
**Djudi Smetana,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Krissi Lyuis,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Glazova Marina Viktorovna,** Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Sevil Piriyeva Karaman,** falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon oʻgʻli,** TDIU ITI departamenti rahbari
**Ochilov Bobur Baxtiyor oʻgʻli,** TDIU katta oʻqituvchisi
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
**Abdukarimova Dinara Rustamxanovna,** bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
**Ikramov Murod Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Nazarova Ra’no Rustamovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Editorial board:**
**Salimov Okil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Rae Kwon Chung, South Korea,** Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
**Osman Mesten,** Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Sayfullo Normatovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Siddikova Sadokat Gafforovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Makhmudov Nosir,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Samadov Askarjon Nishonovich,** Candidate of Economic Sciences, Professor
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Ikrom Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khakimov Nazar Khakimovich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
**Ali Konak,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
**Cham Tat Huei,** Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli,** Head of the DCEC under the Prosecutor Genera's Office of the Rep. of Uzb.
**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Prosecutor of Anijan Region
**Ochilov Farkhod,** Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
**Judi Smetana,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Chrissy Lewis,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Glazova Marina Victorovna,** Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Sevil Piriyeva Karaman,** Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli,** Senior lecturer at TSUI
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Ikramov Murod Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Nazarova Ra'no Rustamovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Po'latov Baxtiyor Alimovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Rustamov Ilhomiddin,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**G'afurov Doniyor Orifovich,** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** katta o'qituvchi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** mustaqil tadqiqotchi
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Geografiya fanlari doktori, professori
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
**Zebo Kuldasheva,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc ), dotsent

Board of Experts:
**Berkinov Bazarbay,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khalikov Suyun Ravshanovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Rustamov Ilkhomiddin,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Kamilova Iroda Khusniddinovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
**Gafurov Doniyor Orifovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
**Fayziyev Oybek Rakhimovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** Senior Lecturer
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** Independent Researcher
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Doctor of Geographical Sciences, Professor
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
**Zebo Kuldasheva,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:
""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali
O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

# MUNDARIJA

O'ZBEKISTON MOLIYA TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI VA UNING BARQARORLIK KO'RSATKICHLARI ..... 18
**Nazarov G'ayrat Xayrullayevich**
YUKLARNI TASHISHDA ZARURIY TRANSPORT XUJJATLARI ..... 22
**Ne'matov Husniddin Alijon o'g'li**
SURXONDARYO VILOYATI HUDUDLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISHDA MOLIYAVIY IMTIYOZ VA PREFERENSIYALARNI SAMARALI QO'LLASH YO'NALISHLARI ..... 27
**Otamurodova Dildora Abdukrimovna**
GLOBAL BEQARORLIK SHAROITIDA MILLIY IQTISODIYOTNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MODELLARI ..... 32
**Saidnazarova Odinabonu Saidolim qizi**
СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ИССЛЕДОВАНИЙ В ОБЛАСТИ УЧЕТА И АУДИТА ФИНАНСОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ ..... 37
**Пулатова Мадина Бейсеновна**
**Табаев Азамат Зарипбаевич**
MAJBURIYATMI YOKI MAJBURIY RISK? MOLIYAVIY MAJBURIYATLAR KONSEPTUAL ASOSLARINING IQTISODIY TABIATI VA ZAMONAVIY TALQINLARI ..... 42
**Palvanov Xusniddin Bekimmatovich**
ПРИНЦИПЫ И МЕТОДЫ УЧЕТА ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ В СИСТЕМЕ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ ..... 47
**Пу Кебин**
TRANSPORT XIZMATLARI SIFATINI BARQARORLIK NUQTAYI NAZARIDAN O'RGANISH METODOLOGIYASI ..... 51
**Xodjaniyazov Elbek Sardorovich**
VILOYAT SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI KO'P OMILLI EMPIRIK MODELLAR ASOSIDA TAHLIL QILISH VA PROGNOZLASH (Qashqadaryo viloyati misolida) ..... 57
**Avazova Nafisa Namazovna**
SANOAT KORXONALARI SHOVQINI VA ATMOSFERA CHIQINDILARINING TURAR-JOY HUDUDLARI EKOLOGIYASIGA TA'SIRINI KAMAYTIRISH CHORALARI ..... 61
**Saparova Shohida Abduvaliyevna**
SANOAT SHOVQINI VA ATMOSFERA IFLOSLANISHINING SHAHAR TURAR JOY HUDUDLARI VA EKOLOGIYASIGA TASIRINI O'RGANISH ..... 65
**Shaxyusupova Nilufar Erkin qizi**
BARQAROR SHAHAR RIVOJLANISHIDA SANOAT OQOVA SUVLARINI BIOLOGIK TOZALASH TEXNOLOGIYALARINING ROLI ..... 69
**Tursunova Aziza Asrorovna**
SHAHAR EKOLOGIK MUHITIGA SANOAT KORXONALARINING TA'SIRINI BAHOLASH ..... 75
**Imomnazarov Farrux Saibjabbor o'g'li**
O'ZBEKISTONDA AYOLLAR TADBIRKORLIGI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA IQTISODIY KO'RSATKICHLAR TAHLILI ..... 78
**Xusanova Zulfiya Raxmatullayevna**
KORXONALARDA INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION BOSHQARUV MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ..... 87
**No'monjonova Muazzam Mahbubjon qizi**
SOLIQ TIZIMIDA SOLIQ RISKINI BAHOLASH USLUBIYOTI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI ..... 93
**Nasimov Ravshanjon Azimovich**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

KICHIK VA O‘RTA BIZNES SUBYEKTLARINI RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI ........ 100
**Kazakova Zulayho Salaxiddinovna**
THE IMPACT OF DIGITAL LITERACY ON LABOR PRODUCTIVITY IN UZBEKISTAN’S SERVICE SECTOR: A REGRESSION ANALYSIS........ 106
**Ismoilov Elyorjon Makhamadali Ugli**
**Urinov Bobur Nasilloyevich**
EKOLOGIK NIZOLARNI HAL ETISHDA SUD AMALIYOTINING O‘RNI VA AHAMIYATI........ 112
**Gapparov Sarvar Xolmurodovich**
ASOSIY FAOLIYAT XARAJATLARINING NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLARI ........ 116
**Djumayeva Guzal Axtamovna**
**Yadgarova Madina Xasan qizi**
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA BANK SOHASIDAGI KIBERJINOYATLAR: TAHLIL, TAHDID VA MUHOFAZA MEXANIZMLARI ........ 120
**Xudayarova Xurshida Abdunazarovna**
ПРОБЕЛЫ В МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВОМ РЕГУЛИРОВАНИИ СОВМЕСТНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ ТРАНСГРАНИЧНЫХ РЕК ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ (НА ПРИМЕРЕ БАССЕЙНА АРАЛЬСКОГО МОРЯ)........ 126
**Тиллахуджаев Аббосхон**
**Дилфуза Шакирова**
**Мухамедалиева Сайёра**
**Ойбек Камилов**
ALOQA XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING O‘RNI VA BAHOLASH USULLARI ........ 139
**Xazratov Abror Panjiyevich**
STRATEGIC HUMAN RESOURCE MANAGEMENT IN HIGHER EDUCATION: CHALLENGES AND OPPORTUNITIES........ 146
**Sultonboyeva Munira Bahodirovna**
**Sultanova Kamila Muktorali Kizi**
TIJORAT BANKLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISHNING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARI........ 154
**Toshimov Azizbek Hakimovich**
**Nomozov G‘ofur Abdusalomovich**
DAVLAT BUDJETI XARAJATLARINING ASOSIY YO‘NALISHLARI: STRUKTURAVIY TRANSFORMATSIYA VA SAMARADORLIKNI BAHOLASH ........ 158
**Izbosarov Bobur Baxriddinovich**
**Umirov Sherzod Baxriddinovich**
INTEGRATION OF TRADE MARKETING AND E-COMMERCE: COMBINING ONLINE AND OFFLINE SALES CHANNELS ........ 162
**Mamatkulova Shoira Jalolovna**
AHOLIGA SAVDO XIZMATLARI KO‘RSATISH SOHASINI RAQAMLASHTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH........ 168
**Qodirov Farrux Ergash o‘g‘li**
**Jurayev Suxrobjon Saloxiddin o‘g‘li**
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МАРКЕТИНГОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ В МАРКЕТИНГОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ........ 177
**Маматкулова Шоира Джалоловна**
РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ЛОГИСТИКИ В РАЗВИТИИ КОММЕРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ТОРГОВЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ........ 184
**Маматкулова Шоира Джалоловна**

SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING BANK SOHASIDA INTEGRATSIYASI XUSUSIYATLARI VA TAHLILI ........ 191
Jurayeva Sevara Zakirovna
INNOVATSION IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISHNING MEHNAT BOZORIGA TA'SIRLARINI BAHOLASH MASALALARI ........ 197
Tursunboyev Umarbek
ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И МЕТОДОВ МАШИННОГО ОБУЧЕНИЯ ПРИ ОЦЕНКЕ НЕДВИЖИМОГО ИМУЩЕСТВА НА ПРЕДПРИЯТИЯХ: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА ........ 202
Мирджалилова Дилдора Шухратовна
Мансурова Сайёра Бахтиёровна
БАНК ТИЗИМИ БАРҚАРОРГИНИ ТАЪМИНЛАШ ВОСИТАЛАРИ ВА УСУЛЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ........ 213
Ж.О.Баходиров
O'ZBEKISTON AGRAR SUG'URTA BOZORIDA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING XAVFLARNI BOSHQARISH VA BARQARORLIKNI OSHIRISHDAGI O'RNI ........ 219
Kodirova Samira Kamol qizi
PERSONALISED OFFERS IN DIRECT MARKETING: IMPACT ON SALES AND CUSTOMER LOYALTY ........ 225
Mamatkulova Shoira Djalolovna
TURIZM INFRASTRUKTURASINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI XIZMATLARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI VA AQLLI TURIZM KONSEPSIYASI ........ 231
Musirmanov Shohboz Usmon o'g'li
HUDUDLARDA MADANIY TURIZM XIZMATLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USLUBIY ASOSLARI ........ 237
Shohruzbek Ruziyev
MARKETING MIX FOR SERVICE COMPANIES: ADAPTATION OF CLASSIC MODELS TO SERVICE MARKETING ........ 244
Mamatkulova Shoira Djalolovna
15-16 YOSHLI TAEKVONDOCHILARNING KOMPLEKS TAYYORGARLIGI DINAMIKASI ........ 250
Tashmatov Sherzod Rixsibayevich
TIJORAT BANKLARIDA DAROMAD VA XARAJATLAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI ........ 256
Toshimov Azizbek Hakimovich
Mamanov Isroil Islom o'g'li
TIJORAT BANKLARIDA DAROMAD VA XARAJATLARNING IQTISODIY MOHIYATI ........ 260
Toshimov Azizbek Hakimovich
Ergashev Ilyos To'raqul o'g'li
DELAYING MOTHERHOOD: BEHAVIORAL AND SOCIO-DEMOGRAPHIC DETERMINANTS OF EARLY CHILDBEARING IN TAJIKISTAN ........ 264
Dr Muhammad Bilal
Gulyorabonu Usmonova
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BANK XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION MEXANIZMLARI ........ 275
Xasanova Xamida Xaydaraliyevna
ELEKTRON TIJORATNI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 281
Nazarova Shahodat Ravshan qizi

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

# ELEKTRON TIJORATNI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

**Nazarova Shahodat Ravshan qizi**
**Termiz davlat universiteti**
**Iqtisodiyot yo'nalishi magistranti**
**E-mail: shaxodatnazarova949821@gmail.com**

**Annotatsiya:** Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jamiyat hayotining barcha sohalariga jadal kirib bormoqda. Axborot texnologiyalarining keng joriy etilishi natijasida ish yuritish jarayonlarining elektron shakli tobora rivojlanmoqda. Xususan, zamonaviy axborot texnologiyalari yangi turdagi bank xizmatlarini ko'rsatish, elektron tijoratni rivojlantirish, elektron shartnomalar va elektron to'lov tizimlaridan foydalanish, shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi o'zaro hisob-kitoblar samaradorligini oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Ushbu maqolada O'zbekistonda elektron tijoratning hozirgi holati, uni davlat tomonidan huquqiy tartibga solishni takomillashtirish zarurati, mazkur sohadagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari hamda elektron tijorat bozorining to'laqonli shakllanishiga to'sqinlik qilayotgan mavjud cheklovlar va takomillashtirish talab etiladigan jihatlar tahlil qilingan. Shuningdek, ularni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** elektron tijorat, elektron to'lov, raqamli iqtisodiyot, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, davlat siyosati, elektron tijorat subyektlari.

**Abstract:** Today, information and communication technologies are rapidly entering all spheres of social life. The widespread introduction of information technologies is contributing to the development of electronic forms of business processes. In particular, modern information technologies create broad opportunities for providing new types of banking services, developing e-commerce, using electronic contracts and electronic payment systems, as well as improving the efficiency of mutual settlements between business entities. This article analyzes the current state of e-commerce in Uzbekistan, the need to improve its legal regulation by the state, the main directions of public policy in this field, and the problems and shortcomings that hinder the full development of the e-commerce market in the country. In addition, proposals and recommendations have been developed to address these issues.

**Keywords:** e-commerce, electronic payments, digital economy, information and communication technologies, public policy, e-commerce entities.

**Аннотация:** В настоящее время информационно-коммуникационные технологии активно проникают во все сферы общественной жизни. Широкое внедрение информационных технологий способствует развитию электронных форм ведения деловых процессов. В частности, современные информационные технологии создают широкие возможности для оказания новых видов банковских услуг, развития электронной коммерции, использования электронных договоров и систем электронных платежей, а также повышения эффективности взаиморасчётов между хозяйствующими субъектами. В данной статье проанализированы современное состояние электронной коммерции в Узбекистане, необходимость совершенствования её государственного правового регулирования, основные направления государственной политики в данной сфере, а также проблемы и недостатки, препятствующие полноценному формированию рынка электронной коммерции в стране. Кроме того, разработаны предложения и рекомендации по их устранению.

**Ключевые слова:** электронная коммерция, электронные платежи, цифровая экономика, информационно-коммуникационные технологии, государственная политика, субъекты электронной коммерции.

## KIRISH

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining iqtisodiyot sohasiga keng joriy etilishi ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'rtasida tovar va xizmat ko'rsatishdagi aloqalarning yangi rivojlanish bosqichini boshlab berdi. Ayni paytda O'zbekistonda elektron tijoratni xo'jalik texnologiya jarayonlariga faol joriy etish va undan samarali

foydalanish, mijozlarning internet global tarmog'i va mobil aloqa vositalari orqali interaktiv xizmat ko'rsatishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Iqtisodiy integratsiyalashuv va globallashuv sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar, xususan, kichik biznes vakillari va tadbirkorlarning o'z faoliyatida elektron to'lov va elektron tijoratni joriy etishi ularning raqobatbardoshligini oshirish bilan birga milliy iqtisodiyotda yuqori iqtisodiy ko'rsatkichlarga erishishlariga sabab bo'lmoqda. Ma'lumot o'rnida shuni qayd etish lozimki, so'nggi bir necha yil ichida elektron tijorat global chakana savdoning ajralmas qismiga aylandi. Boshqa ko'plab sohalar singari, tovarlarni sotib olish va sotish internet paydo bo'lishidan keyin jiddiy o'zgarishlarni boshdan kechirdi va zamonaviy hayotning davom etayotgan raqamlashuvi tufayli butun dunyodagi iste'molchilar endi onlayn tranzaksiyalarning afzalliklaridan foydalanmoqda. Dunyo bo'ylab internet orqali buyurtmalar soni tez sur'atlar bilan oshib borayotgani sababli global elektron tijorat bozori jadal rivojlanmoqda. So'nggi ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilda dunyoda 6 milliardga yaqin internet foydalanuvchilari mavjud bo'lib, ulardan taxminan 2,77 milliard nafari onlayn xaridlarni amalga oshirmoqda. Global chakana elektron tijorat savdosi hajmi ham yil sayin ortib borib, 2025-yilda taxminan 6,5–6,8 trillion AQSh dollariga yetgani, 2026-yilda esa 7 trillion AQSh dollariga yaqinlashishi kutilayotgani qayd etilmoqda. O'zbekiston Respublikasining rasmiy statistika ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatimizda ham elektron tijorat va chakana savdo hajmlarining yil sayin o'sishi kuzatilmoqda. Jumladan, 2025-yilda O'zbekistonda elektron tijorat savdo hajmi 22,7 trillion so'mni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2024-yilga nisbatan qariyb 1,5 barobar oshgan. Shuningdek, elektron tijoratning chakana savdo aylanmasidagi ulushi 4,6 foizni tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkichlar mamlakatimizda raqamli iqtisodiyot va elektron tijorat tizimlari jadal rivojlanib borayotganini hamda ushbu sohada yangi islohotlar va innovatsion yechimlarni joriy etish zarurligini ko'rsatadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamlashtirish jarayoni aholining barcha qatlami uchun sifatli xizmatlarni taklif etish bilan birga, qulay usulda istalgan vaqtda, istalgan joyda bir nechta turdagi xarid jarayonlarini amalga oshirish hamda ko'rsatilayotgan xizmatlardan samarali foydalanish imkonini beradi. Iqtisodiy sohalarda esa juda ko'plab qulayliklar yaratilib, minimal darajada xarajat qilgan holda maksimal darajada foyda olish va juda katta samaradorlikka erishish bilan bir qatorda tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish imkoniyatlarini bermoqda. Raqamlashtirish jarayoni iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida tejamkorlik hamda samaradorlikni ta'minlaydi.

O'zbekistonda elektron tijoratning huquqiy asoslarini shakllantirish bo'yicha dastlabki qadamlar 2004-yilda "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonun qabul qilinishi bilan boshlandi [1]. Mazkur qonun elektron shartnomalar, elektron hujjatlar hamda boshqa raqamli vositalar orqali amalga oshiriladigan bitimlar uchun huquqiy asos yaratdi.

Shuningdek, 2004-yilda "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi qonun qabul qilinib, davlat organlari hamda xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida elektron hujjatlarni almashish jarayonini tashkil etish uchun huquqiy mexanizmlar belgilab berildi [2].

Elektron tijorat sohasidagi yana bir muhim huquqiy elementlardan biri elektron raqamli imzo hisoblanadi. Shu munosabat bilan 2022-yilda "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi qonun qabul qilinib, elektron hujjatlarning haqiqiyligi va ishonchliligini ta'minlash tizimi yaratildi [3]. Ushbu qonun elektron hujjatlar va shartnomalarni masofadan turib tasdiqlash imkoniyatini berib, elektron tijorat subyektlari faoliyatini sezilarli darajada yengillashtirdi.

Davlat raqamli iqtisodiyotning asosiy drayveri hisoblanadi. 2020-yilning "Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb e'lon qilinishi mamlakatimizda raqamlashtirish jarayoniga bo'lgan e'tiborning nechog'lik yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Bu borada mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi tasdiqlangan va ushbu strategiyani amalga oshirish doirasida keng miqyosdagi chora-tadbirlar komplekslari rejalashtirilgan [4].

Ushbu farmonga muvofiq, O'zbekistonda elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta'minlashni ko'zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Shuningdek, 2021-yil 17-noyabrdagi "Elektron tijorat ma'murchiligini takomillashtirish va uni yanada rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-14-son qarori qabul qilingan bo'lib [5], qarorda elektron tijorat sohasidagi platformalar faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda akkreditiv bo'yicha hisob-kitob tizimini joriy etish, Elektron tijoratning "Ochiq raqamli ekotizimi"ni tashkil etish, Raqamli ekotizimning "eskrou" tizimini joriy qilish, 2024-yil 1-yanvarga qadar Raqamli ekotizimga

integratsiyalashgan elektron tijorat platformalari operatorlari uchun foyda solig'i stavkasini 50 foizga kamaytirish kabi masalalar ko'zda tutilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada ilmiy tadqiqotning turli usullaridan foydalanildi. Jumladan:
• tahlil va sintez usullari orqali elektron tijoratning nazariy asoslari o'rganildi;
• taqqoslash usuli yordamida rivojlangan davlatlar tajribasi tahlil qilindi;
• statistik ma'lumotlar asosida O'zbekistonda elektron tijoratning hozirgi holati baholandi;
• tizimli yondashuv asosida muammolar aniqlanib, ularning yechimlari ishlab chiqildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ochiqlik, xalqaro iqtisodiy-siyosiy aloqalarning rivojlanishi yurtimizda sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash imkoniyatlarini yuzaga chiqardi. Bunga mamlakatimiz tashqi savdo hajmining o'sishini misol qilib keltirish mumkin. "Elektron hukumat", "elektron boshqaruv", "telekommunikatsiya", "internet", "veb-sayt" kabi yuzlab iboralar hayotimizning ajralmas bo'lagiga aylandi. IT kundalik hayotimizning barcha sohasini qamrab olmoqda.

Shubhasiz, raqamli iqtisodiyot — bu kelajak. Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligi ko'p jihatdan raqamli iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi hisoblangan Sanoat 4.0 inqilobiga moslashish, raqamli texnologiyalarni iqtisodiyotning barcha sohalariga joriy etishni qanchalik qisqa fursatda hal etishimizga chambarchas bog'liq. Mazkur yo'nalishda ishlarni samarali tashkil etish raqamli texnologiyalar sohasida yetarli kompetensiyalarga ega bo'lgan yetuk kadrlarga borib taqaladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda, davlat organlari va boshqa tashkilotlarda elektron hujjat almashinuvi hamda jismoniy va yuridik shaxslarga xizmat ko'rsatish uchun elektron tijorat tizimlarini bosqichma-bosqich joriy etishning iqtisodiy va huquqiy asoslari yaratilmoqda.

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, O'zbekiston elektron tijorat assotsiatsiyasi, O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi elektron tijorat yechimlarini ishlab chiquvchi mamlakatimizdagi potensial hamkorlardir . Shuningdek, Amerika Savdo palatasi, Humans.uz platformasi, O'zbekiston sanoat-qurilish banki va UzCard to'lov tizimi, Click va PayMe tizimlari O'zbekistonda eng ommabop elektron to'lov xizmatlari hisoblanadi.

Onlayn tijorat "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonun bilan tartibga solinadi. Unga ko'ra, elektron tranzaksiyalar xaridorlarga sotuvchi haqida quyidagi ma'lumotlarni taqdim etishi kerak:

• yuridik shaxsning tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan to'liq nomi yoki jismoniy shaxsning familiyasi, ismi va otasining ismi;
• pochta manzili va elektron pochta manzili, shuningdek, tashkilotning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar;
• qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda litsenziyaning mavjudligi;
• elektron tijorat sohasida shartnoma tuzish tartibi;
• elektron tijorat shartnomasi shartlarini kelishishda unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish imkoniyati va tartibi;
• akseptni jo'natish va qaytarib olish tartibi;
• tovarlarni, jumladan, ishlar va xizmatlarni yetkazib berish va to'lash shartlari, jumladan, ular uchun taklif etilayotgan narxlar, shu jumladan, amaldagi tariflar;
• axborot resursida joylashtirilgan elektron hujjatga havola qilish orqali shartnomaga kiritilgan shartlarni ko'rsatish;
• barcha elektron hujjatlar va xabarlar qayd etilishi kerak.

Respublika hukumati elektron tijorat sohasidagi davlat siyosati va dasturlarini amalga oshirish uchun javobgardir va davlat organlarining ushbu sohadagi faoliyatini muvofiqlashtiradi.

Sanoat rivojiga ko'maklashish uchun hukumat onlayn savdodan olingan daromaddan atigi 2% soliq undirdi, an'anaviy biznes uchun esa 4%. Shu bilan birga, O'zbekiston qonunlari dori vositalari va tibbiy buyumlarni onlayn sotishga ruxsat beradi hamda tovar va xizmatlar uchun to'lovlarni elektron tarzda amalga oshirish imkonini beradi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Markaziy banki 2019-yilda onlayn to'lov infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida Visa to'lov tizimi bilan o'zaro anglashuv memorandumini imzoladi va ko'plab banklar onlayn

to'lovlarni qayta ishlashni osonlashtirish maqsadida elektron tijorat saytlariga to'lov dasturlari va xizmatlarini taklif qilmoqda .

Elektron tijorat sohasida IT-mutaxassislar sonini ko'paytirish maqsadida Axborot texnologiyalari universiteti qoshida 2018-yilda Toshkentda elektron tijorat fakulteti ochilib, hukumat 2020–2022-yillarda onlayn savdoning o'sishini rag'batlantirish uchun bir qator muhim qadamlarni qo'ydi, jumladan, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini qabul qilish, unga muvofiq axborot texnologiyalari sohasidagi oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalariga qabulni 2030-yilga kelib hozirgi 7000 dan 20000 gacha oshirish, shuningdek, butun mamlakat bo'ylab optik tolali aloqa tarmog'ini 2030-yilga kelib hozirgi 118 ming km dan 250 ming km gacha va yuqori tezlikdagi internet qamrovini 100% gacha oshirish rejalashtirilgan.

O'zbekiston 2021–2022-yillarda raqamli infratuzilmani rivojlantirishga 2,5 milliard dollar sarmoya kiritganligi ma'lum qilindi. Natijada O'zbekistonda elektron tijoratning ulushi yildan-yilga oshmoqda, bu esa raqamli texnologiyalar, internet infratuzilmasi va onlayn to'lov tizimlarining rivojlanayotganidan dalolat beradi. Elektron tijorat savdo hajmi 2020-yildagi 1002,5 mlrd so'mdan 2024-yilda 15 640,7 mlrd so'mgacha oshgan. Bu esa 15 barobarga yaqin o'sish demakdir. 2024-yilda elektron tijorat chakana savdoning 4,6 %ini tashkil etmoqda, bu esa onlayn savdoning iqtisodiyotdagi o'rnini kengaytirayotganini ko'rsatadi (1-rasm).




1-rasm. O'zbekistonda elektron tijorat va chakana savdo hajmi (mln so'm)[1]

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda elektron tijorat so'nggi yillarda jadal rivojlanib, milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi, internet infratuzilmasining rivojlanishi, elektron to'lov tizimlarining takomillashuvi hamda davlat tomonidan yaratilayotgan huquqiy va institutsional shart-sharoitlar ushbu sohaning barqaror o'sishini ta'minlamoqda. Shu bilan birga, elektron tijoratni rivojlantirishda ayrim muammolar, jumladan, raqamli infratuzilmaning hududlar kesimida yetarli darajada rivojlanmaganligi, aholining raqamli ko'nikmalarini yanada oshirish zarurati, logistika tizimidagi kamchiliklar va malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyoj kabi omillar mavjud.

Mazkur muammolarni bartaraf etish va elektron tijoratni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi taklif va tavsiyalarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

Birinchidan, elektron tijorat sohasida huquqiy-me'yoriy bazani yanada takomillashtirish, xususan, xalqaro standartlarga mos qonunchilikni shakllantirish hamda iste'molchilar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish zarur.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika Agentligi ma'lumotlarida asosida muallif ishlanmasi.

Ikkinchidan, hududlar kesimida raqamli infratuzilmani rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish, yuqori tezlikdagi internet tarmog'ini kengaytirish va uning sifatini oshirish orqali elektron tijoratdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish lozim.

Uchinchidan, logistika va yetkazib berish tizimlarini modernizatsiya qilish, omborxona va transport infratuzilmasini rivojlantirish orqali tovarlarning tezkor va ishonchli yetkazib berilishini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

To'rtinchidan, aholining raqamli savodxonligini oshirish, ayniqsa, kichik biznes subyektlari va tadbirkorlar uchun elektron tijorat bo'yicha o'quv dasturlarini kengaytirish orqali ularning ushbu sohadagi faol ishtirokini rag'batlantirish zarur.

Beshinchidan, elektron to'lov tizimlarini yanada rivojlantirish, ularning xavfsizligini kuchaytirish hamda xalqaro to'lov tizimlari bilan integratsiyasini kengaytirish orqali tranzaksiyalar samaradorligini oshirish lozim.

Oltinchidan, elektron tijorat platformalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida soliq imtiyozlari va subsidiyalar tizimini takomillashtirish, startap loyihalarni moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish maqsadga muvofiq.

Yettinchidan, elektron tijorat sohasida malakali kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish, oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy o'quv dasturlarini joriy etish hamda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratish zarur.

Umuman olganda, elektron tijoratni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kompleks ravishda takomillashtirish orqali mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish hamda aholi farovonligini yuksaltirish mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-792-son, 29.09.2022-yil. https://lex.uz/uz/docs/-6213382
2. O'zbekiston Respublikasining "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi Qonuni. 611-II-son, 29.04.2004-yil. https://lex.uz/docs/-165079
3. O'zbekiston Respublikasining "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-793-son, 12.10.2022-yil. https://lex.uz/docs/-6234904
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. PF-6079-son, 05.10.2020-yil. https://lex.uz/docs/-5030957
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Elektron tijorat ma'murchiligini takomillashtirish va uni yanada rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish to'g'risida"gi Qarori. PQ-14-son, 17.11.2021-yil. https://lex.uz/docs/-5732739
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari. https://stat.uz
7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari. https://cbu.uz
8. O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi ma'lumotlari. https://gov.uz/uz/digital
9. UNCTAD. Digital Economy Report 2024: Shaping an Environmentally Sustainable and Inclusive Digital Future. Geneva: United Nations Trade and Development, 2024. https://unctad.org/publication/digital-economy-report-2024
10. Statista. E-commerce worldwide — statistics and facts. https://www.statista.com/topics/871/online-shopping/
11. OECD. OECD Digital Economy Outlook 2024. Paris: OECD Publishing, 2024. https://www.oecd.org/en/publications/oecd-digital-economy-outlook-2024_3adf705b-en.html

# YASHIL

**IQTISODIYOT&TARAQQIYOT**

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

**2026. № 6/1**



© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz